NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI: XORIJIY VA MILLIY TAJRIBALAR TAHLILI

Z.D.Hasanova[1], G.S.Xakimova[2]

1. Buxoro davlat texnika universiteti dotsenti
2. Buxaro xalqaro universiteti tayanch doktoranti

Mas'ul muallif: Hasanova Zebo Davlatovna, Buxoro davlat texnika universiteti dotsenti.

Received: 05 Noyabr 2026
Accepted: 10 Noyabr 2026
Published: 15 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Hasanova, Z. D. NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI: XORIJIY VA MILLIY TAJRIBALAR TAHLILI / Z. D. Hasanova, G. S. Xakimova // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 1. — B. 479–482.

Annotatsiya. Mazkur maqolada nodavlat oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari tarixiy-pedagogik va qiyosiy-tahliliy yondashuv asosida tadqiq etilgan. Tadqiqotda ta'lim sifati tushunchasining antik davrdan zamonaviy pedagogik paradigmalargacha bo'lgan evolyutsiyasi tahlil qilinib, Sharq va G'arb pedagogik tafakkuridagi ilmiy qarashlar o'zaro qiyoslangan. Tadqiqot natijasida ta'lim sifati murakkab va dinamik pedagogik kategoriya ekanligi, Sharq va G'arb pedagogik an'analari o'rtasida metodologik uyg'unlik mavjudligi hamda nodavlat oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini takomillashtirishda integrativ yondashuv muhim ahamiyat kasb etishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, nodavlat oliy ta'lim, paradigma, kompetensiyaviy yondashuv, konstruktivizm, innovatsion ta'lim, pedagogik nazariya, sifat menejmenti.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ: АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО И НАЦИОНАЛЬНОГО ОПЫТА

Аннотация. В данной статье исследуются научно-теоретические основы совершенствования качества образования в негосударственных высших образовательных учреждениях на основе историко-педагогического и сравнительно-аналитического подходов. В исследовании проанализирована эволюция понятия качества образования от античного периода до современных педагогических парадигм, а также проведён сравнительный анализ научных взглядов восточной и западной педагогической мысли. В результате исследования обосновано, что качество образования представляет собой сложную и динамичную педагогическую категорию, а интеграция восточных и западных педагогических традиций является важной методологической основой совершенствования качества образования в негосударственных высших учебных заведениях.

Ключевые слова: качество образования, негосударственные высшие образовательные учреждения, парадигма, компетентностный подход, конструктивизм, инновационное образование, педагогическая теория, менеджмент качества.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS FOR IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION IN NON-STATE HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS: ANALYSIS OF FOREIGN AND NATIONAL EXPERIENCES

Abstract. This article examines the scientific and theoretical foundations for improving the quality of education in non-state higher education institutions through historical-pedagogical and comparative-analytical approaches. The study analyzes the evolution of the concept of educational quality from antiquity to modern pedagogical paradigms and comparatively investigates the scientific views of Eastern and Western pedagogical thought. The findings reveal that educational quality is a complex and dynamic pedagogical category and demonstrate that the integration of Eastern and Western pedagogical traditions serves as an important methodological basis for improving educational quality in non-state higher education institutions.

Keywords: educational quality, non-state higher education, paradigm, competency-based approach, constructivism, innovative education, pedagogical theory, quality management.

Kirish Inson kapitalining rivojlanishi, davlatlarning xalqaro raqobatbardoshligi hamda jamiyat taraqqiyoti bevosita ta'lim tizimining sifat darajasi bilan belgilanadi. Shu jihatdan, ta'lim sifati muammosi insoniyat tarixida eng qadimiy va doimiy ravishda takomillashib boruvchi pedagogik kategoriyalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur tushuncha antik davr mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlaridan boshlab, Sharq va G'arb pedagogik tafakkuri, klassik didaktik yondashuvlar, industrial jamiyat modeli hamda zamonaviy kompetensiyaviy paradigmalargacha izchil evolyutsion

rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tgan.

Bugungi kunda ta’lim sifati tushunchasi faqatgina bilim hajmi yoki o‘quv natijalari bilan emas, balki ta’limning institutsional samaradorligi, pedagogik innovatsiyalar, akademik boshqaruv, raqamli texnologiyalar integratsiyasi, xalqaro standartlarga moslik hamda shaxsning funksional kompetensiyalarini shakllantirish darajasi bilan ham baholanmoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim tizimida sifatni ta’minlashning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish xalqaro miqyosdagi ustuvor ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylangan.

O'zbekiston Respublikasida ham oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, nodavlat ta'lim sektorini rivojlantirish va ta'lim xizmatlari sifatini oshirish davlat siyosatining muhim strategik yo'nalishi sifatida e'tirof etilmoqda [1]. Xususan, 2022–2026 yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekiston” taraqqiyot strategiyasida oliy ta'lim qamrovini kengaytirish bilan bir qatorda, ta'lim sifatining xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [2]. Mazkur jarayon nodavlat oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati muammosini pedagogik, metodologik va ilmiy-nazariy jihatdan chuqur tadqiq etishni taqozo etadi.

Shu nuqtai nazardan, ta’lim sifati tushunchasining tarixiy genezisi, uning turli pedagogik paradigmalar doirasidagi talqinlari hamda xorijiy va milliy ilmiy yondashuvlar asosida qiyosiy tahlil qilinishi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Sharq va G‘arb pedagogik an’analarida ta’lim sifati masalasiga oid shakllangan nazariy qarashlarning o‘zaro integratsiyasi zamonaviy ta’lim tizimini takomillashtirish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ta’lim sifati muammosi pedagogika fanining tarixiy taraqqiyoti davomida turli davrlar va pedagogik paradigmalar kesimida shakllanib kelgan murakkab ilmiy kategoriya hisoblanadi. Mazkur tushunchaning nazariy asoslari antik davr falsafasidan boshlab zamonaviy kompetensiyaviy va konstruktivistik ta’lim modellari rivojigacha izchil evolyutsion bosqichlarni bosib o‘tgan. Shu bois tadqiqot jarayonida ta’lim sifati masalasini tarixiy-pedagogik, qiyosiy va metodologik jihatdan kompleks o‘rganish muhim ilmiy zarurat sifatida namoyon bo‘ladi.

Antik davr mutafakkirlari - Suqrot, Aflotun hamda Arastu qarashlarida ta’lim sifati insonning aqliy kamoloti, tanqidiy fikrlashi va fazilatli shaxs sifatida shakllanishi bilan bog‘langan. Suqrotning «maoevtika» metodi o'quvchi ichidagi yashirin bilimni dialogik so'roq orqali yuzaga chiqarishga asoslanadi. Suqrot uchun sifatli ta'lim - o'quvchini o'ylatadigan, tanqidiy fikrlashga dialog va mustaqil fikrlash orqali yuzaga chiqarishni nazarda tutgan.

Aflotun idealistik pedagogik konsepsiyasida ta’lim sifati “g‘oyalar dunyosi”ga mos mukammallik mezoni orqali talqin etilgan bo’lib «Davlat» asarida ideal ta'lim modelini yaratdi. Uning uchun ta'lim sifati uch pog'onali: jismoniy tarbiya, estetik tarbiya va falsafiy bilim uyg‘unligida asoslagan.

Arastu esa ta’limni amaliy faoliyat va fazilatlar bilan uyg‘un holda ko‘rib, bilimning hayotiy ahamiyatini ta’lim sifatining asosiy mezoni sifatida belgilagan. Arastu uchun sifatli ta'lim nafaqat nazariy bilim, balki hayotiy va amaliy qimmatga ega bilimdir. Bu yondashuv zamonaviy kompetensiyaviy ta'lim paradigmasining qadimgi asosini tashkil etadi. [3].

O‘rta asr Sharq pedagogik tafakkurida ta’lim sifati masalasi yanada tizimli va ilmiy xarakter kasb etdi. Ayniqsa, Al-Farobiy, Ibn Sino va Al-Beruniy asarlarida bilimning nazariy va amaliy uyg‘unligi, axloqiy yetuklik hamda ilmiy tafakkur rivoji ta’lim sifatining muhim mezonlari sifatida e’tirof etildi. Al-Farobiy ta’limni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida baholab, “fazilatli jamiyat” konsepsiyasini ilgari surgan рфьвф «Ilmlarning tasnifi» (“Tasnif al-ulum)“ da ta'limni til, mantiq, matematika, tabiiy fanlar va fuqarolik ilmlari bo'yicha tizimlashtirdi. Bu tasnif O'rta asrlar Yevropa universitetlari dasturiga ham ta'sir ko'rsatdi. Al-Farobiyning ta'lim sifatiga nisbatan yondashuvi zamonaviy «hayot davomida ta'lim» (lifelong learning) konsepsiyasiga hamda interdistsiplinar ta'lim g'oyasiga yaqin turadigan ilk nazariy asosni tashkil etadi [4] .

Ibn Sino o'z asarlarida ta'lim sifatiga nisbatan o'sha davr uchun g'oyatda ilg'or mezonlarni belgiladi. «Kitob ash-Shifo» va «Donishnoma»da bola tarbiyasi va ta'limiga oid chuqur pedagogik g'oyalar bayon etilgan. Ibn Sino ta'lim sifatini quyidagi tamoyillar asosida ko'rdi: individual yondashuv (har bir bola o'ziga xos), bosqichma-bosqichlik, o'yindan foydalanish va qobiliyatga mos yo'nalish tanlash.

Ibn Sino birinchi marta bolaning tabiatiy moyilligiga qarab uning uchun ta'lim yo'nalishini tanlashni ilmiy asosda tavsiya etdi. Bu g'oya zamonaviy differensiatsiyalangan ta'lim va iqtidor ta'limi (gifted education) konsepsiyalariga yaqin turadi. Uning tibbiyot, falsafa, matematika va adabiyotni o'z ichiga olgan universal bilim tizimi talabi zamonaviy interdistsiplinar ta'limning ilk nazariy namunasi hisoblanadi . [5].

Yevropa pedagogik tafakkurida Jan Amos Komenskiy Jan Amos Komenskiy «Buyuk didaktika» asarida ta'lim sifatining ilmiy-didaktik asoslarini yaratdi. Uning «hamma narsani hamma kishilarga o'rgatish san'ati» ta'rifida sifat masalasi darhol ko'zga tashlanadi: ta'lim ommaviy, tizimli va samarali bo'lishi shart. Komenskiy ta'lim sifatini belgilovchi mezonlar sifatida quyidagi tamoyillarni ishlab chiqdi: tabiatga muvofiqlik (natura conformitas), ko'rgazmalilik (intuitio), bosqichma-bosqichlik (gradus), onglilik va faollik, mustahkamlik.Komenskiy birinchi marta ta'lim sifatini barcha uchun ta'minlanadigan, tizimli va o'lchanadigan didaktik jarayon sifatida ta'rifladi. Bu yondashuv XIX–XX asrlarda keng tarqalgan umumiy majburiy ta'lim tizimining nazariy asosi bo'ldi [6]. Keyinchalik Jan-Jak Russo «Emil, yoki Tarbiya to'g'risida» (1762) asarida mutlaqo yangi yondashuv kiritdi. Uning asosiy g'oyasi: ta'lim sifatli bo'lishi uchun bola tabiatiga mos, majburiylikdan xoli va hayotiy tajribaga asoslangan bo'lishi kerak. Russo sun'iy va shakliy ta'limni tanqid qilib, kuzatishga, mustaqil fikrlashga va erkin rivojlanishga asoslangan ta'limni sifatli deb hisobladi. Bu yondashuv zamonaviy «bolaga yo'naltirilgan ta'lim» (child-centered learning) konsepsiyasining nazariy zamini bo'ldi [7].

XX asrning ikkinchi yarmida ta’lim sifati muammosi ilmiy o‘lchash va baholash metodologiyasi bilan boyidi.

Benjamin Bloom tomonidan 1956 yilda ishlab chiqilgan ta’lim maqsadlari taksonomiyasi pedagogika fanida ta’lim natijalarini tizimli baholashning muhim nazariy asoslaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Mazkur taksonomiya ta’lim jarayonining samaradorligini aniqlash, o‘quv maqsadlarini bosqichma-bosqich rejalashtirish hamda ta’lim sifatini ilmiy asosda baholash imkonini yaratdi. Blum kognitiv faoliyatni oltita izchil darajaga ajratdi: bilim (knowledge), tushunish (comprehension), qo‘llash (application), tahlil (analysis), sintez (synthesis) va baholash (evaluation). Ushbu bosqichlar o‘quvchining oddiy bilimni o‘zlashtirishdan boshlab murakkab analitik va ijodiy fikrlash darajasigacha bo‘lgan intellektual rivojlanish jarayonini ifodalaydi.

Hozirgi kunda Blum taksonomiyasi xalqaro pedagogik amaliyotda o‘quv dasturlarini loyihalash, kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim natijalarini shakllantirish, baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda ta’lim sifatini monitoring qilishning universal metodologik vositalaridan biri sifatida keng qo‘llanilmoqda. [8].

Bu davrlarda mamlakatimizda ta’lim tarbiya masalasi milliy-ma’naviy qadriyatlar, axloqiy tarbiya va ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan uzviy bog‘liq holda rivojlandi. Abdulla Avloniy o'zbek jadidchilik harakatining yirik namoyondasi sifatida ta'lim sifatiga islohotchi yondashuv bilan qaradi. «Turkiy Guliston yohud axloq» (1913) asari va «Maktab» jurnali orqali u maorif islohotlari uchun qat'iy kurashdi. Avloniy ta'lim va tarbiya masalalarini milliy uyg'onish, vatan ravnaqi va fuqarolik burchi bilan bevosita bog'ladi. Uning jadid maktablarida ta'lim sifatini belgilovchi mezonlar quyidagilar edi: usuli jadid (yangi o'qitish usuli - tovush metodi), ilmiy-tabiiy fanlarni o'qitish, axloqiy tarbiya va milliy o'zlikni anglash.

Avloniyning yod olish va mexanik takrorlashga asoslangan an'anaviy maktabni tanqid qilishi va unga muqobil sifatida tushunishga, fikrlashga va faol ishtirokga asoslangan ta'limni taklif etishi - bu progressivist pedagogika bilan hamfikrlik belgisidir. [9].

Muhokamalar va Natijalar Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim sifati tushunchasi tarixiy taraqqiyot davomida mazmunan sezilarli transformatsiyaga uchragan. Antik davrda ta’lim sifati asosan falsafiy tafakkur va axloqiy kamolot bilan bog‘liq holda talqin etilgan bo‘lsa, o‘rta asrlarda diniy-falsafiy va ensiklopedik yondashuvlar ustuvorlik kasb etdi. Uyg‘onish davridan boshlab esa insonparvarlik va shaxsga yo‘naltirilganlik ta’lim sifatining asosiy mezoniga aylandi.

Yevropa pedagogik tafakkurida ta’lim sifatining didaktik va metodik jihatlariga ko‘proq e’tibor qaratilgan bo‘lsa, Sharq pedagogik an’analarida bilimning axloqiy va ma’naviy mohiyati ustuvor ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, Al-Farobiy va Ibn Sino qarashlarida bilim va fazilatning uyg‘unligi ta’lim sifatining eng muhim sharti sifatida ko‘riladi. Bu jihat zamonaviy kompetensiyaviy ta’lim paradigmasi bilan metodologik uyg‘unlik kasb etadi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik paradigmalarda ta’lim sifati faqat akademik natijalar bilan emas, balki shaxsning kreativligi, kommunikativ kompetensiyasi, muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati hamda ijtimoiy moslashuvchanligi bilan ham belgilanishi aniqlanmoqda. Bu esa nodavlat oliy ta’lim muassasalarida innovatsion pedagogik texnologiyalar va ichki sifat monitoring tizimlarini rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, nodavlat oliy ta’lim muassasalari ta’lim xizmatlari bozorida raqobat muhitini shakllantirish orqali sifat ko‘rsatkichlarining oshishiga xizmat qilmoqda. Biroq ayrim hollarda akademik salohiyat, ilmiy-metodik ta’minot va sifat nazorati tizimining yetarli darajada shakllanmaganligi ta’lim sifati samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli xalqaro tajribalarni milliy pedagogik qadriyatlar bilan integratsiyalash muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Tadqiqot natijasida ta’lim sifati tushunchasining tarixiy-pedagogik evolyutsiyasi antik davrdan zamonaviy kompetensiyaviy paradigmagacha izchil rivojlanganligi aniqlandi. Ta’lim sifati barcha davrlarda inson kamoloti, ijtimoiy taraqqiyot va ma’naviy yetuklik bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan universal pedagogik kategoriya sifatida namoyon bo‘lishi asoslandi.

Shuningdek, Sharq va G‘arb pedagogik ta’limotlarida ta’lim sifatiga oid yondashuvlar o‘rtasida metodologik umumiylik va farqli jihatlar mavjudligi aniqlashtirildi. Xususan, G‘arb pedagogikasida didaktik samaradorlik va metodik tizimlilik ustuvor bo‘lsa, Sharq pedagogikasida axloqiy-ma’naviy kamolot va ilmiy tafakkur integratsiyasi asosiy mezon sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlillar asosida nodavlat oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini takomillashtirishning quyidagi ustuvor yo‘nalishlari belgilandi:

kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish;

ichki va tashqi sifat monitoring tizimlarini rivojlantirish;

xalqaro akkreditatsiya standartlarini joriy etish;

professor-o‘qituvchilarning pedagogik kompetentligini oshirish;

milliy pedagogik qadriyatlar va zamonaviy innovatsion texnologiyalar integratsiyasini ta’minlash.

Natijada ta’lim sifatini takomillashtirishda tarixiy-pedagogik meros, xalqaro tajriba va milliy ta’lim an’analarining uyg‘unligi muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Pedagogik ta'limotlarini qiyosiy tahlil qilganda, qator muhim umumiy qonuniyatlar namoyon bo'ladi, barcha buyuk pedagog-mutafakkirlar ta'limni shaxs va jamiyatning kamoloti uchun zarur vosita deb hisoblashgan, ta'lim sifatining mezonlari sifatida aqliy rivojlanish, axloqiy tarbiya va amaliy tatbiq doimo birgalikda ko'rib chiqilgan, o'quvchiga individual yondashish talabi har ikkala an'anada ham mavjud bo'lgan.

Ta'lim sifati tushunchasining tarixiy evolyutsiyasi

№	Bosqich / davr	Vakillari	Asoslanish turi	Asosiy mezonlar	Tavsif
I	Antik davr- XVI asr	Suqrot, Aflotun, Arastu, Al-Farobiy, Ibn Sino	Falsafiy-axloqiy asoslanish	Bilim Axloq Fazilat	Ta'lim sifatining falsafiy-axloqiy asoslanishi. Bilim va axloq birligi - asosiy mezoni.
II	XVII - XIX asrYevropa didaktikasi	Komenskiy, Russo	Didaktik-tizimli asoslanish	Tamoyil Metod Sinf darajalik	Ta'lim sifatining didaktik-tizimli asoslanishi. Tamoyillar, metodlar, sinfdarajalik - asosiy mezonlari.
III	XX asrbirinchi yarmi	Bloom, Avloniy	Psixologik-shaxsiy asoslanish	Rivojlanish Faollik Motivatsiya	Ta'lim sifatining psixologik-shaxsiy asoslanishi. O'quvchi rivojlanishi, faolligi, motivatsiyasi - asosiy mezonlari.
IV	XX asr oxiri- XXI asr	Zamonaviy paradigmalar, xalqaro tajriba	Kompetensiyaviy-natijaviy asoslanish	Kompetensiya Xalqaro standart Natija	Ta'lim sifatining kompetensiyaviy-natijaga yo'naltirilgan asoslanishi. O'lchanadigan kompetensiyalar va xalqaro standartlar - asosiy mezonlari.

Xulosa Ta’lim sifati tushunchasi antik davr falsafiy qarashlaridan boshlab zamonaviy kompetensiyaviy va konstruktivistik pedagogik paradigmalargacha uzluksiz ravishda rivojlanib kelgan. Har bir tarixiy bosqichda mazkur tushuncha jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlari, madaniy qadriyatlari va pedagogik qarashlari bilan uzviy bog‘liq holda yangi mazmun kasb etgan. Shu jihatdan, ta’lim sifati yagona va o‘zgarmas mezon bilan belgilanadigan kategoriya emas, balki tarixiy taraqqiyot davomida takomillashib boruvchi pedagogik fenomen sifatida namoyon bo‘ladi.

Qiyosiy tahlillar asosida Sharq va G‘arb pedagogik ta’limotlarida ta’lim sifatiga oid yondashuvlar o‘rtasida muayyan metodologik umumiylik mavjudligi aniqlandi. Xususan, har ikkala pedagogik an’anada ham ta’lim sifati, bilimning tizimliligi va ilmiyligi, shaxsning axloqiy-ma’naviy kamoloti, ta’limning amaliyot va hayot bilan bog‘liqligi kabi fundamental mezonlar orqali talqin etilgan.

Shu bilan birga, Sharq pedagogik tafakkurida ta’limning ma’naviy-axloqiy va insonparvarlik mohiyatiga ustuvor ahamiyat berilgan bo‘lsa, G‘arb pedagogik paradigmasida didaktik samaradorlik, metodik tizimlilik hamda innovatsion yondashuvlar ko‘proq rivojlantirilganligi kuzatildi. Mazkur jihatlar ta’lim sifatini takomillashtirishda Sharq va G‘arb pedagogik merosining integrativ sintezidan foydalanish muhim ilmiy-metodologik asos bo‘lishini tasdiqlaydi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari nodavlat oliy ta’lim muassasalari zamonaviy pedagogik innovatsiyalarni joriy etish, kompetensiyaviy yondashuvlarni rivojlantirish hamda xalqaro sifat standartlarini implementatsiya qilish borasida yuqori moslashuvchanlik va innovatsion salohiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Bu esa mazkur ta’lim muassasalarining ta’lim sifati monitoringi, ichki sifat menejmenti va pedagogik texnologiyalarni modernizatsiya qilishdagi strategik rolini yanada kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026 yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2022.

[3] Aristotle. Nicomachean Ethics.– Oxford: Oxford University Press, 2009 – 352p

[4] Al-Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 320 b.

[5] Ibn Sino. Donishnoma. – Toshkent: Fan, 1981. – 280 b.

[6] Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916. – 434 p.

[7] Emile, or On Education /Rousseau J.J. – New York: Basic Books, 1979. – 480p

[8] Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. – New York: Longmans, Green and Co, 1956. – 207 p.

[9] Turkiy Guliston yoxud axloq /Avloniy A.–Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 160 b.